



3-SINFDA ONA TILIGA OID BILIMLARN TAKOMILLASHTIRISHDA “BILIMLAR BELLASHUVI” TANLOVINI TASHKIL ETISH

Asatova Barfiya Faxridinovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Buxoro shahar 24-maktabning

oliy toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

barfiya.asatova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola sinfdan tashqari ishlar mazmunini takomillashtirish, bilimlar bellashuvi tanlovini qay tarzda tashkil etish haqida yoritilgan. Bunday turdagi bellashuv tashkil etilganda, o‘quvchilar tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ona tili fanidan o‘tilgan mavzularni qayta takrorlab, yodlashadi, jamoa bo‘lib tayyorgarlik ko‘rishadi. Eng asosiysi bellashuv jarayonida jamoa bo‘lib ishlash, bir-birini himoya qilish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, mag‘lubiyat va g‘alaba hissini tuyish kabilarni o‘rganadilar.

Kalit so‘zlar: ona tili, bellashuv, sinf, shart, qatnashchilar, guruh, jamoa, qoida, maktab.

Аннотация: В данной статье описано, как улучшить содержание внеклассной деятельности, как организовать соревнование знаний. При организации такого рода соревнований учащиеся повторяют и запоминают темы, изученные по предмету на своем родном языке в процессе подготовки, и готовятся в команде. Самое главное, что во время соревнований они учатся работать в команде, защищать друг друга, принимать правильные решения, ощущать ощущение поражения и победы.

Ключевые слова: родной язык, соревнование, класс, состояние, участники, группа, команда, правило, школа.



Abstract: This article discusses how to improve the content of extracurricular activities and organize a knowledge competition. When organizing such a competition, students repeat and memorize the topics covered in the native language during the preparation process, prepare as a team. Most importantly, during the competition, they learn how to work as a team, protect each other, make the right decisions, feel the feeling of defeat and victory.

Key words: native language, competition, class, condition, participants, group, team, rule, school.

Kirish. Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning bajaradigan asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. „Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir", — deydi u. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida ongli o'qish va savodli yozishga o'rganadilar, og'zaki va yozma nutqning qonun-qoidalarini egallaydilar. Ona tili sohasidagi ko'nikma malakalar (nutq, o'qish va yozishga oid malakalar) o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasidir. O'quvchi o'qish ko'nikmalarini egallash bilan bir qatorda, birinchi navbatda, o'zining ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'lumotini oshirish va darslarni o'zlashtirish darajasini oshirishga ko'maklashish uchun boshlang'ich sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur. Fan to'garaklari ona tili bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam bersa, turli xil bellashuvlar olgan bilimlarni hayotda qo'llashga, o'z bilimlar darajalarini o'zga sinf bilan taqqoslashga xizmat qiladi.



Asosiy qism. Sinfdan tashqari ishlar o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ona tilidan “sinfdan tashqari ish” deyilganda o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan bo'lim tugaganda yoki har chorak yakunida bilimlar bellashuvini o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda avvalo bellashuvda qatnashadigan o'quvchilarni saralab olish lozim. Sinflar kesimida bilimlar bellashuvini tashkil etganda sizning sinfingizni himoya qila oladigan o'quvchilaringizni tanlab olish lozim. Darslar davomida aktiv qatnashadigan, nazorat ishlarini a'lo darajada bajaradigan, ona tilini sevib o'qiydigan bo'lishi lozim. Shunda ham ko'nglingiz to'lmasa kichkina bilimlar bellashuvini avval sinfingizda o'tkazib olishingiz mumkin. G'olib bo'lgan 5-6 o'quvchingizni sinflar kesimida bo'lib o'tadigan bilimlar bellashuviga qatnashtirishingiz mumkin. Quyida 3-sinflar o'rtasida o'tkazilgan “Ona tili bilimdoni” bellashuvi bilan tanishib chiqamiz.

Bellashuv maktab direktori buyrug'i asosida o'tkazildi.(1-rasm) Shundan so'ng nizom ishlab chiqildi. Bu bellashuv faqatgina maktab bosqichida o'tkazildi. Bellashuvda 3-“A”, 3-“B” va 3-“V” sinflari o'zaro bellashishdi.(2-rasm)



**BUXORO SHAHAR MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI
24-SONLI UMUMTA'LIM MAKTABI DIREKTORINING
BUYRUG'I**

15.11.2024 yil 339.2-42-DUM/2024-son

“Muqaddasdir Vatan bayrog'i” haftaligini o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil “23”-avgustdagi 273-son buyrug'iga asosan Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2024-2025-o'quv yilida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasida “Muqaddasdir Vatan bayrog'i” haftaligi doirasida “Bayrog'imiz g'ururimiz” mavzusida 1-4-sinflar kesimida rasmlar tanlovi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini monitoring qilish va ta'lim samaradorligini aniqlash maqsadida 2-4-sinflar o'rtasida “Hilpiray bayrog'im” mavzusida diqqatlar tanlovi o'tkazishga ruxsat berilgin.

Asos: O'IBDO" B. Ma'lumot bildirgin

Imzolovchi F.I.SHI OCHILOV SAMI BATUROVICH	Imzolangan sana 15.11.2024 12:9	Hujjat kod DE2903632663	Xufosa kod DT183864824 7
--	------------------------------------	----------------------------	--------------------------------





1-rasm. Direktor buyrug'i
tili bilimdoni" tanlovining qatnashchilari

Tanlov shartlari.

Tanishtiruv. (5 ball). Bu shartda o'quvchilar o'zlari haqida ma'lumot berishadi. Sinflari to'g'risida, ona tili fanidan qaysi mavzular o'tilgani to'g'risida aytib berishlari mumkin.

Ona tili fanidan tezkor savollar.(10 ball) Ona tili fanidan o'tilgan mavzular yuzasidan 3 ta guruhga 10 tadan turlicha savollar tuzilgan bo'lib, o'quvchilar tezkorlik bilan javob berishlari kerak. Berilgan savollarning har biriga to'g'ri javob bersalar 1 ballni qo'lga kiritishadi.

O'zbekcha gapirishni o'rganamiz. (10 ball) O'zbek tilimizda ruslashgan so'zlar kirib kelayotgani hech kimga sir emas. O'quvchilar bir-biri bilan so'zlashga turli xil jargonlardan foydalanishyapti. Mana shunday so'zlar va so'z birikmalar aslida o'zbek tilida qanday aytilishini qatnashchilar yozishlari kerak.(3-rasm)

Davno kelgan edi-_____

Prosta borgim kelmadi-_____

Morojnoye-_____

Karoche ketdik-_____

Televizor-_____

Musor tashlama-_____

Semichka-_____

Shapkangni kiygin-_____

Karzinkaga sol-_____

Qora bryuk- _____



3-rasm. 3-shartni bajararish jarayoni



Test. (10 ball). O‘tilgan mavzular yuzasidan 10 ta test beriladi. O‘quvchilar o‘z jamoasi bilan maslahatlashib testni bajarishadi. Bunda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Rasm asosida matn yaratish.(10 ball) Juriy a‘zolari tomonidan bellashuvning o‘zida internetdan rasm tanlanib ko‘rsatiladi. Jamoa a‘zolari diqqat bilan rasm ko‘rib olib, o‘z jamoasi bilan maslahatlashib, chiroyli va mazmunli matn yaratishadi.

Bellashuv yakulangandan so‘ng g‘olib jamoa faxriy yorliqlar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi. Bellashuv bayonnomasi tuzilib, jamoalar olgan ballari va qaror qismlari tayyorlanib, fotolavhalar bilan maktabning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosariga taqdim etiladi.

Xulosa. Bunday turdagi bellashuv tashkil etilganda, o‘quvchilar tayyorgarlik ko‘rish jarayonida ona tili fanidan o‘tilgan mavzularni qayta takrorlab, yodlashadi, jamoa bo‘lib tayyorgarlik ko‘rishadi. Eng asosiysi bellashuv jarayonida jamoa bo‘lib ishlash, bir-birini himoya qilish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, mag‘lubiyat va g‘alaba hissini tuyish kabilarni o‘rganadilar. Umuman olganda, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ham tariyaviy ham ta‘limiy maqsadlarni inobatga olgan holda tashkil etish lozim. Ona tili fanidan tashkil etilgan bilimlar bellashuvi sinfdan tashqari ish bo‘lsada, o‘quvchilarning bilim darajasini yanada oshirishda, mustahkamlashda, jamoa bo‘lib ishlash, bir-biriga hurmat, oz fursatda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, sinfdan tashqari tashkil etilgan barcha ishlar o‘quvchi yoshlarimizni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, kelajakka ishonch, dadil qadamlar bilan borishga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova va boshqalar “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent 2019.
2. Nurmatova M. Ifodali o’qish to’garagi. “Til va adabiyot ta’limi” 2018 yil. 1 - son.
3. Jalilova M. Ne’matova G. Takrorlash mashg’ulotlarini “Topqirlar bellashuvi” tarzida o’tkazish. “Til va adabiyot ta’limi” 2014 yil 2 -3 qo’shma sonlari
4. J.O.Tolibova.Pedagogik texnologiyalar – do’stona muhit yaratish omili. - T.: 2015.
5. Hamroyev, A. R. (2021). Designing students' creative activity in primary school mother tongue education as a methodological problem. Middle European Scientific Bulletin, 11.
6. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 549-558.
7. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students’ Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
8. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
9. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 138-143.
10. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.
11. Jobir o’g’li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA TA’LIM MAZMUNINING TAVSIFI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 144-147.